

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “ 1 ” aprel dagi
513-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

Boshqaruv raisi v.b
O. Butayev
(ro'yxat raqami VII-20/481,
2026-yil “ 8 ” aprel)



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining monitoringi va nazorati to'g'risida”gi**
NIZOM
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel 51-3 4 **dagi**
sonli qaroriga
ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining monitoringi va nazorati to‘g‘risida”gi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining monitoringi va nazorati to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (keyingi o‘rinlarda - KQKT) sohasidagi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va yetakchi jahon amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari - Qo‘llash bo‘yicha talab va tavsiyalar” xalqaro standartining talab va tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlariga, KQKT sohasidagi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi va ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom bankning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki qoidalarining monitoringi va nazoratini amalga oshirish bo‘yicha bank tomonidan o‘rnatilgan tartib va qoidalarni belgilaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o‘rinlarda - KQND) – bankda korrupsiyaga qarshi kurashish ustidan nazoratni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linma;

mehmondo‘stlik belgilari – ko‘ngilochar tadbirlarga, kechki ovqatlarga, ziyofatlarga, ijtimoiy yoki sport tadbirlariga va boshqalarga taklifnomalar, muntazam tijorat shartnomasida ko‘zda tutilmagan potensial yoki mavjud mijoz va/yoki kontragent uchun sayohat va boshqa tegishli xarajatlarni to‘lash;

kontragent – bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan/ kirishayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

korruptsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik — korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

sovg'a — oluvchi uchun foydali bo'lgan har qanday moddiy va nomoddiy qimmatliklar, shu jumladan xizmatlar, kreditlar, kredit kafolatlari, ko'chmas mulkdan foydalanish, ish takliflari, xarajatlar, qarzlarni to'lash va boshqalar;

majmuaviy tekshirish tartiboti (Due diligence) — Korruptsiya xavfining tabiati va darajasini baholash va bankka maxsus bitimlar, loyihalar, tadbirlar, kontragentlar va xodimlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam berish jarayoni;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi (KQKT) — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki xujjatlariga muvofiq, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy faoliyat yuritishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

xodim — bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

xizmat tekshiruvlari — bankning ichki qoidalari va/yoki qonun hujjatlarida belgilangan korruptsiyaga qarshi kurashish va axloqiy meyorlarga oid O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va bankning ichki qoidalari talablarining buzilishi faktlari, holatlari, sabablari va shartlarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va bankning ichki qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui.

2-bob. Monitoring va nazorat qilish maqsadlari va tamoyillari

4. KQKT (Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi) faoliyatini monitoring va nazorat qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

tizim faoliyatining samaradorligini umumiy va davriy baholash;

bank xodimlari tomonidan korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratuvchi omillar va risklarni aniqlash;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki qoidalar va xalqaro standartlar (masalan, ISO 37001) talablariga rioya etilishini ta'minlash;

aniqlangan korruptsiya omillarini bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

korruptsiya xavflari ehtimolini bashorat qilish va ularning bank nufuziga (reputatsiyasiga) salbiy ta'sirini minimallashtirish;

bank faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish;

xodimlarda korruptsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish;

KQKT doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijadorligini umumiy baholash.

5. Monitoring va nazorat jarayonlari tizimli, rejalashtirilgan va doimiy asosda amalga oshiriladi hamda ularning natijalari rahbariyatga taqdim etiladi.

6. Bank KQKT monitoringi va nazoratining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

a) **qonuniylik** — O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga va bankning ichki qoidalariga muvofiq monitoring va nazorat ishlarini amalga oshirish;

b) **to'liq qamrab olish** — bankning barcha jarayonlarini majburiy tartibda monitoring qilish va nazorat qilish;

d) **oshkoralik va shaffoflik** — monitoring va nazorat qilish jarayonlarida barcha xodimlarning ishtirokini ta'minlash;

e) **xolislik** — monitoring va nazoratni xolis va odilona, qat'iy qonunchilik, nazariy va amaliy asosda, KQND vakolatlari doirasida, har tomonlama va to'liq hajmda olib borish;

f) **mustaqillik** — KQND tomonidan monitoring va nazoratni mustaqil amalga oshirish va manfaatdor shaxslar foydasiga xulosa olinishiga yo'l qo'ymaslik;

g) **asoslanganlik** — monitoring va nazorat natijalarining asosliliigi, xolisligi va tekshirilishi;

h) **korruptsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligi** — korruptsiyaga oid omillar aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va majburiy choralar ko'rish.

i) **profilaktika ustuvorligi** — korruptsiyaning oldini olish chora-tadbirlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, aniqlangan omillarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi va majburiy choralar ko'riladi.

j) **tizimlilik va uzluksizlik** — monitoring va nazorat ishlari bir martalik tadbir sifatida emas, balki doimiy va tizimli jarayon sifatida amalga oshiriladi.

k) **javobgarlik va hisobdorlik** — monitoring va nazorat natijalari bo'yicha mas'ul shaxslarning javobgarligi belgilanadi hamda bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot berish mexanizmi joriy etiladi.

3-bob. Monitoring va nazorat qilishning asosiy yo'nalishlari

7. KQND quyidagi asosiy sohalarni monitoring va nazorat qiladi:

korruptsiya xavflarni minimallashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi;

bank KQKT talablarini bajarish bo'yicha javobgarlikni belgilash samaradorligi;

ichki audit natijalari bo'yicha ilgari aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish samaradorligi;

treningning samaradorligi;

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining kontragentlar tekshiruvini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomasi"ga muvofiq bank tomonidan majmuaviy tekshirish tartibotlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida tanlov asosida tekshirishlar o'tkazish;

KQKT qoidalarini buzish va takroriy buzilishlar soni;

korruptsiya holatlari soni;

ommaviy axborot vositalarida bank, uning xodimlari, hamkorlari va kontragentlarining korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga va axloqsiz tadbirkorlik amaliyotiga aloqadorligi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi;

taqdim etilgan va qabul qilingan sovg'alar hamda mehmondo'stlik belgilarining soni;

Korporativ odob-axloq kodeksi va Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatini buzish holatlari soni;

bankning aloqa kanallariga korruptsiyaga qarshi kurashish va tadbirkorlik faoliyatining axloqiy qoidalariga zid bo'lgan holatlar bo'yicha murojaatlar soni;

manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq aniqlangan holatlar soni;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar masalalari bo'yicha o'tkazilgan ichki tekshiruvlar soni;

bank tomonidan korruption xavf yuqori deb belgilangan boshqa sohalar.

8. Korruptsiyaga qarshi kurashish talablari va tartibotlariga rioya etilishini monitoring va nazorat qilishning belgilangan asosiy yo'nalishlari har yili korruptsiya xavflarini baholash natijalariga ko'ra KQND tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda, bank Boshqaruvi bilan kelishilgan holda monitoring va nazoratning asosiy yo'nalishlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

1-§. Korruptsiyaga qarshi monitoring va nazoratni amalga oshirish rejas

9. KQND korruptsiya xavflarni baholashning har yillik natijalari asosida bank bo'linmalarining KQKTni monitoring va nazorat qilishning yillik rejasini (keyingi o'rinlarda - Reja) ishlab chiqadi.

10. KQND tomonidan ishlab chiqilgan **Reja har yili tuziladi 15-fevraliga qadar** bank Boshqaruviga ko'rib chiqish uchun kiritiladi. Reja bank Boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab **bir oy muddat** ichida tasdiqlanishi lozim.

11. Rejada quyidagilar majburiy tartibda aks ettiriladi:

ushbu Nizomning 6-bandida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlar;

monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish muddatlari;

har bir yo'nalish bo'yicha ijroga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar va shaxslar;

monitoring natijalari bo'yicha hisobot shakllari va ularni taqdim etish davriyligi;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan choralar va ularning ijrosi ustidan nazorat mexanizmi.

12. Monitoring natijalari bo'yicha KQND tomonidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanadi va bank Boshqaruviga hamda zarur hollarda tegishli tarkibiy bo'linmalarga taqdim etiladi. Aniqlangan korrupsiya xavflari va qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq muddatlar va mas'ullar belgilanadi.

2-§. Korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat qilish uchun axborot manbalari

13. Bankda korrupsiyaga qarshi monitoring va nazoratni samarali amalga oshirish uchun quyidagi axborot manbalari asosiy hisoblanadi:

KQKT bo'yicha bankning ichki qoidalari;

KQND tomonidan bank rahbariyatiga taqdim etiladigan davriy va maxsus hisobotlar;

xizmat tekshiruvlari natijalari bo'yicha hisobotlar;

bankning hududiy va tarkibiy bo'linmalaridan korrupsiyaga qarshi monitoring o'tkazish maqsadida KQND xodimlari tomonidan so'ralgan va taqdim etilgan hujjatlar, ma'lumotlar hamda tushuntirish xatlari;

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlari;

jismoniy va yuridik shaxslardan aloqa kanallari (ishonch telefoni, rasmiy veb-sayt, elektron pochta, maxsus platformalar va boshqalar) orqali kelib tushgan bankdagi korrupsiya holatlari hamda boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar;

bank xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalari;

ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan materiallar;

sud qarorlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar taqdimnomalari va boshqa rasmiy ma'lumotlar;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va xodimlarning daromad hamda mol-mulk haqidagi ma'lumotlari (amaldagi qonunchilikka muvofiq);

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa axborot manbalari.

14. Mazkur axborot manbalari asosida bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanadi, baholanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

3-§. Korrupsiyaga qarshi monitoring va nazoratni amalga oshirish shakllari va usullari

15. KQKTni samarali amalga oshirish maqsadida bank tomonidan muntazam monitoring va nazorat tadbirlari olib boriladi. Mazkur jarayonlar bank faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi hamda korrupsiyaviy xavflarni o'z vaqtida aniqlash, baholash va bartaraf etishga qaratilgan.

16. KQKTni monitoring va nazorat qilishda bank quyidagi usullardan foydalanadi:

qiyosiy tahlil — ichki jarayonlar, ko'rsatkichlar va natijalarni oldingi davrlar yoki boshqa tarkibiy bo'linmalar ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali ehtimoliy nomuvofiqliklarni aniqlash;

hujjatlarni o'rganish (hisobotlar, ma'lumotnomalar, xizmat yozishmalari, shartnomalar, nashrlar, murojaatlar va boshqalar) — qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va qonuniyligini tekshirish;

intervyu va so'rovlar o'tkazish — xodimlar, mijozlar va manfaatdor tomonlar o'rtasida anonim yoki ochiq shaklda fikr-mulohazalarni yig'ish orqali korrupsiyaviy omillarni aniqlash;

kuzatish — hodisalar, jarayonlar va holatlarni vizual va bevosita idrok etish orqali amaliy faoliyatning belgilangan tartiblarga muvofiqligini baholash;

risklarni baholash va tahlil qilish — korrupsiyaviy xavflarning ehtimolligi va salbiy oqibatlarini aniqlash hamda ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish;

ichki audit va xizmat tekshiruvlari — aniqlangan kamchiliklar yoki shubhali holatlar yuzasidan batafsil tekshiruv o'tkazish;

axborot tizimlari orqali monitoring — elektron ma'lumotlar bazalari va nazorat mexanizmlaridan foydalangan holda operatsiyalarni doimiy kuzatib borish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasidagi boshqa qonuniy usullar.

17. KQND bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha korrupsiyaga qarshi jarayonlarning doimiy monitoringini amalga oshiradi. Monitoring natijalari asosida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish bo'yicha mas'ul shaxslar belgilanadi hamda ijro intizomi ustidan nazorat o'rnatiladi.

18. Shuningdek, monitoring va nazorat natijalari muntazam ravishda bank rahbariyatiga taqdim etiladi hamda zarur hollarda ichki qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tashabbusi ilgari suriladi. Mazkur jarayonlarning izchilligi va shaffofligi bankda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

4-bob. Monitoring va nazorat qilish natijalari

19. KQKT monitoringi va nazorati natijalariga ko'ra, bank KQKTning yaroqliligi, muvofiqligi va samaradorligini baholaydi va aniqlangan kamchiliklarni

bartaraf etish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo'yicha asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqadi.

20. Monitoring va nazorat qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi yangilanadi yoki qo'shimchalar kiritiladi. Mazkur chora-tadbirlar rejasida aniq muddatlar, mas'ul ijrochilar va kutilayotgan natijalar belgilanadi hamda ularning bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatiladi.

21. KQKT monitoringi va nazorati natijalari bo'yicha hisobot "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risida hisobot berish, hisobotlarni tasdiqlash va oshkor qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan tartibga muvofiq tuziladi.

22. Bank tegishli hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni olingan natijalar hamda foydalanilgan monitoring va nazorat usullarining tasdiqnomasi sifatida saqlashi shart. Hujjatlar ichki qoida talablar va amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda arxivlashtiriladi hamda zarurat tug'ilganda vakolatli organlarga taqdim etiladi.

23. Monitoring va nazorat natijalari asosida KQKTni doimiy takomillashtirish, xodimlarning xabardorligini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha o'quv va tushuntirish tadbirlari tashkil etilishi mumkin.

24. Monitoring va nazorat qilish natijalari bank Boshqaruvi tomonidan muntazam ravishda ko'rib chiqiladi hamda strategik qarorlar qabul qilishda inobatga olinadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur Nizom bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

26. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

27. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

28. Mazkur Nizom shartlari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

29. Mazkur Nizomda ko'rsatib o'tilmagan tamoyillar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

30. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

31. KQND mazkur Nizom talablarining joriy etilishi va bank xodimlariga tushuntirilishi uchun javobgardir.

32. Bank rahbariyati mazkur Nizomda belgilangan talablarning bajarilishi samaradorligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

33. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2023-yil 15-avgustdagi 114-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining monitoringi va nazorati to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.

Shummi

Shummi

